

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**RAXMANOVA GULNOZA SHUXRATOVNA**

**TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLAR REPRODUKTIV  
ORGANLARINING POSTNATAL MORFOGENEZI**

**16.00.02 - Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi.  
Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
ветеринарным наукам**

**Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences**

**Raxmanova Gulnoza Shuxratovna**

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar reproduktiv organlarining postnatal  
morfojenezi.....3

**Рахманова Гулноза Шухратовна**

Постнатальный морфогенез репродуктивных органов, кур яичного  
направления.....21

**Rakhmanova Gulnoza Shukhratovna**

Postnatal morphogenesis of reproductive organs of egg-bearing hens.....39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works.....43

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**RAXMANOVA GULNOZA SHUXRATOVNA**

**TUXUM YO‘NALISHIDAGI TOVUQLAR REPRODUKTIV  
ORGANLARINING POSTNATAL MORFOGENEZI**

**16.00.02 - Hayvonlar patologiyasi, onkologiyasi va morfologiyasi.  
Veterinar akusherligi va hayvonlar reproduksiyasi biotexnikasi**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.4.PhD/V105 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi ([www.ssu.uz](http://www.ssu.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Dilmurodov Nasriddin Babakulovich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Eshburiyev Baxtiyor Mamatkulovich**  
veterinariya fanlari doktori, professor

**Navruzov Nurali Itolmasovich**  
veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «12» 04 soat 10<sup>00</sup> daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M. Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: [ssuv@edu.uz](mailto:ssuv@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14338 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77 uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «29» 03 kuni tarqatildi.  
(2025 yil «29» 03 daqiqa № 5 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**X.B.Yunusov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, biol.f.d., professor

**S.B.Eshbo'riyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, vet.f.d., dotsent

**Q.N.Norboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda parrandachilik chorvachilikning intensiv rivojlanadigan rentabelligi yuqori va istiqbolli tarmoqlaridan biri bo'lib, aholini parhez go'shti va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlash imkonini beradi. Parrandalarning reproduktiv organlari qishloq xo'jalik hayvonlarinikidan bir qator morfo-fiziologik xususiyatlari bilan farq qilib, ularning biologik imkoniyatlarini inobatga olgan holda ilmiy asosda ratsional foydalanishni yo'lga qo'yish mumkin. Buning uchun, eng avvalo parrandalarning postnatal ontogenezida reproduktiv organlarida kechadigan morfofunktsional o'zgarishlarni har tomonlama tadqiq qilish talab etiladi. "Tuxum yo'nalishidagi parrandachilik fermalarida reproduktiv tizim kasalliklaridan kelib chiqadigan o'lim va majburiy so'yish tuxum yo'nalishidagi tovuqlar umumiy chiqimining 25% dan 50% gacha o'zgarib turadi. Ba'zi hollarda bu ko'rsatkich 70-80% dan ham oshadi. Amerikada bu kasalliklar 35% ni tashkil qiladi".<sup>1</sup> Ushbu kasalliklardan kelib chiqadigan yo'qotishlar nafaqat parrandalarning nobud bo'lishi, balki tuxum mahsuldorligining pasayishi, sifatsiz tuxum olish va ko'pincha tuxum qo'yishning to'liq to'xtashi bilan bog'liq.

Jahonda parrandachilikni sanoat asosida rivojlantirish, tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning tabiiy sharoitning o'zgaruvchan omillariga moslashuvchan krosslarini yaratish, ularni oziqlantirishni ilmiy asosda tashkil etish, ularning tabiiy rezistentligini oshirish va tuxum qo'yish jarayonining turli bosqichlarida organizmda kechadigan morfo-fiziologik o'zgarishlarni boshqarishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sanoatlashgan parrandachilikda tuxum yo'nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida ko'payish organlarining yoshga doir morfologiyasini chuqur o'rganish, ulardan sifatli va kasalliklarga bardoshli avlod olish, mahsuldorlikni oshirish va reproduktiv organlar kasalliklarini o'z vaqtida differensial tashxis qo'yish, amaliy muammolarni hal qilish borasida tadqiqotlar o'tkazish zaruriyati mavjud.

Respublikamizda parrandachilik sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, ichki va tashqi bozorlarga yo'naltirish uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytirish, parrandachilik xo'jaliklarining ozuqaga bo'lgan talabini barqaror ta'minlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, sohaga keng aholi qatlamlarini jalb etish va huquqiy madaniyatini oshirish, shuningdek, tarmoqda ilmiy-texnik yondashuvlar va axborot texnologiyasidan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha bir qator hukumat qarorlari ijrosining ta'minlanishi natijasida mamlakatimizda jami parrandalar 103 mln.<sup>2</sup> boshga yetkazildi. Parrandachilikda mahsuldorlikni oshirish, seleksiya va naslchilik ishlarini takomillashtirishda parrandalarning funksional morfologiyasini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada tuxum yo'nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezining turli fiziologik bosqichlarida reproduktiv organlarining

---

<sup>1</sup> Федотов С.В., Федотов В.П. Профилактика заболеваний и биотехника репродукции кур в фермерских хозяйствах // Барнаул: Изд-во АГАУ, 2007. – 137 с.

<sup>2</sup> <https://xabar.uz/uz/iqtisodiyot/O'zbekistondagi-parrandalar-statistikasi-ma'lumoti>

morfoloqik va gistologik ko'rsatkichlarining o'zgarish dinamikasini hamda ushbu morfofunksional jarayonlarning tuxum qo'yish davrlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish muhim ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015-sonli "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi,<sup>3</sup> 2020-yil 20-yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>4</sup>, 2021-yil 14-iyunidagi PQ-5146-sonli "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq ozuqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-sonli "Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi, 2022-yil 15-iyundagi PQ-281-sonli "Parrandachilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2024-yil 27-iyundagi PQ-238-sonli "Parrandachilik sohasini yanada qo'llab-quvvatlash, zamonaviy genetik texnologiyalar va kooperatsiya tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Parrandalar organlarining morfofunksional xususiyatlari hamda morfogenez jarayonlarining kechish mexanizmlari xorij olimlari, jumladan, В.Ф.Вракин, Л.Ф.Дядичкина, А.Д.Николаев, Ф.И.Сулейманов, Л.Д.Тимченко, Х.Б.Юнусов, С.А.Силушкин, О.Ю.Царева, Р.Ю.Хохлов, Н.В.Житенко, О.Ю.Степина, С.Б.Стрижикова, А.А.Тегза, Е.В.Родин, В.И.Фисинин, Г.Т.Казенкова, Н.К.А.Аlshammay, I.M.Khan, D.A.Abood, S.Intarapat va boshqalar, respublikamiz olimlaridan N.B.Dilmurodov, Sh.Z.Doniyorov, N.E.Xudaynazarovalar tomonidan o'rganilgan va ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilgan bo'lsada, tuxum yo'nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida reproduktiv organlarning morfometrik va gistologik ko'rsatkichlarining o'zgarish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan.

Parrandalar reproduktiv organlari postnatal taraqqiyotining qonuniyatlarini aniqlash, tuxum yo'nalishidagi tovuqlar biologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ulardan ilmiy asosda foydalanish, sifatli tuxum va go'sht mahsulotlarini yetishtirishda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish hamda uni joriy qilish muhim hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi

---

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-noyabrdagi PQ-4015-son "Parrandachilikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-yanvardagi PQ-4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani “Oq saroy” xususiy korxonasi bilan “Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar salomatligini saqlash va mahsuldorligini oshirish” bo‘yicha tuzilgan shartnoma №61 (25.05.2024y.) asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezing turli fiziologik bosqichlarida reproduktiv organlarining makromorfometrik, gistologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

har xil yoshdagi tuxum yo‘nalishidagi tovuqlarda tuxumdonning va tuxum yo‘lining makroanatomik o‘lchamlarining mutloq ko‘rsatkichlarini aniqlash;

tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezing turli bosqichlarida reproduktiv organlari makroanatomik o‘lchamlarining o‘sish koeffitsiyentini aniqlash;

har xil yoshdagi tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumdoni va tuxum yo‘lining gistologik tuzilmalarining ko‘rsatkichlarini aniqlash;

tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumdoni va tuxum yo‘lining makroanatomik, gistologik ko‘rsatkichlarini postnatal ontogenezing turli fiziologik bosqichlarida o‘zgarish xususiyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz tumani “Oq saroy” parrandachilik xususiy korxonasidan olib kelingan 15, 35, 85, 120, 168, 280, 420 va 570 kunlik “Dekalb” krossiga mansub tuxum yo‘nalishidagi jo‘jalar va tovuqlar, ulardan olingan tuxumdon, tuxum yo‘li, gistologik preparatlar, bo‘yoqlar va kimyoviy reaktivlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** turli yoshdagi tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar reproduktiv organlari – tuxumdon, tuxum yo‘li (voronka, oqsilli qism, bo‘yinch, bachadon va qin) ning morfometrik o‘lchamlari, gistologik ko‘rsatkichlari.

**Tadqiqot usullari.** Mazkur dissertatsiya ishini bajarishda morfologik, makromorfometrik, gistologik va statistik usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar reproduktiv organlari morfometrik o‘lchamlarining postnatal ontogenezing 120, 168 kunligida jadal ortishi aniqlangan;

tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida tuxumdon va tuxum yo‘lining mikroanatomik qismlari ko‘rsatkichlaridagi tafovutlar ilmiy asoslangan;

tovuqlar reproduktiv organlari makro- va mikroanatomik o‘lchamlarining o‘sish koeffitsiyenti postnatal ontogenezing 168 kunida yuqori bo‘lishi aniqlangan;

tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumdoni po‘stloq qavatidagi follikulalarning yetilish jarayoni, follikulalar pardasi, diametri, qon tomirli qavatining nisbiy ko‘rsatkichlarining o‘zgarish xususiyatlari asoslangan;

tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida tuxum yo‘lining voronka, bo‘yinch, oqsilli, bachadon va qin qismlari gistologik tuzilmalarining o‘zgarish xususiyatlari isbotlangan;

tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezining turli bosqichlarida tuxumdon va tuxum yoʻlining makroanatomik, mikroanatomik va gistologik koʻrsatkichlarining oʻzgarish xususiyatlari boʻyicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezining turli fiziologik bosqichlarida reproduktiv organlarning morfometrik koʻrsatkichlarining oʻzgarish xususiyatlari aniqlangan;

tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezining har xil fiziologik davrlarida tuxumdon va tuxum yoʻlining mikroanatomik qismlari koʻrsatkichlarining oʻzgarish xususiyatlari aniqlangan;

tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar tuxumdoni poʻstloq qavatidagi follikulalarning yetilish jarayoni, follikulalar pardasi, diametri, qon tomirli qavati nisbiy koʻrsatkichlarining oʻzgarish qonuniyatlari aniqlangan;

tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida tuxumdon, tuxum yoʻlining voronka, boʻyicha, oqsilli, bachadon, qin qismlari gistologik tuzilmalarining oʻzgarishi tuxum qoʻyish bosqichlari bilan bogʻliqligini aniqlashga erishilgan;

tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar tuxumdoni va tuxum yoʻlining makro-, mikroanatomik va gistologik koʻrsatkichlarining postnatal ontogenezda tuxum qoʻyish bosqichlari bilan bogʻliq holda oʻzgarish xususiyatlari boʻyicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda oʻtkazilganligi, morfologik, gistologik, zootexnikaviy usullardan foydalanib boshlangʻich maʼlumotlarga biometrik ishlov berilganligi, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba maʼlumotlari bilan toʻgʻri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy olimlarning tajribalari bilan taqqoslanganligi, tajribalarning dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi va izlanish natijalarining oʻquv jarayoniga hamda ishlab chiqarishga joriy etilganligi bilan isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezining har xil fiziologik bosqichlarida tuxumdon va tuxum yoʻlining (voronka, oqsilli qism, boʻyicha, bachadon va qin qismlari) makro- va mikroanatomik hamda gistologik oʻzgarishlarini ilmiy asoslash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar tuxumdoni va tuxum yoʻli anatomik qismlarining shakllanishi, follikulalarning yetilish davrlari hamda makroanatomik, mikroanatomik va gistologik koʻrsatkichlarining tuxum qoʻyish bosqichlari bilan bogʻliqligi boʻyicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar berilganligi bilan tavsiflanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar reproduktiv organlarining postnatal morfogenezi boʻyicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:



“Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida reproduktiv organlarining o‘zgarish xususiyatlari” bo‘yicha uslubiy tavsiyanoma tasdiqlangan va o‘quv jarayoniga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo‘mitasining 2024-yil 9-oktabrdagi 02/23-2305-son ma‘lumotnomasi). Ushbu tavsiyalarning qo‘llanilishi natijasida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar biologiyasi bo‘yicha mavjud ma‘lumotlarni boyitish, reproduktiv tizimi organlarining postnatal ontogenezdagi rivojlanish qonuniyatlari, ularning morfologik va gistologik xususiyatlarini o‘rganish imkoni yaratilgan;

ilmiy tadqiqotlar natijasida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar biologiyasi va reproduktiv tizimi organlarining postnatal taraqqiyotidagi o‘zgarishlarini tadqiq etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar olingan va tadqiqotlarning ushbu xulosalari Veterinariya va chorvachilik sohalarida kadrlar tayyorlanayotgan Oliy ta‘lim muassasalarida “Hayvonlar anatomiyasi”, “Hayvonlar morfologiyasi” fanlarining “parrandalar anatomiyasi” bo‘limini o‘rganishda o‘quv jarayoniga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo‘mitasining 2024-yil 9-oktabrdagi 02/23-2305-son ma‘lumotnomasi). Natijada “parrandalar anatomiyasi” bo‘limi yangi ilmiy asoslangan ma‘lumotlar bilan boyitilgan hamda talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga erishilgan;

Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar reproduktiv tizimidagi morfofunktsional o‘zgarishlar va postnatal ontogenezdagi turli fiziologik bosqichlari hamda ular organizmida kechadigan “qaltis” davrlari (280, 420, 570 kunlik) aniqlangan. Olingan natijalar Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani “Oq saroy” parrandachilik xususiy korxonasiga joriy etilgan. (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo‘mitasining 2024-yil 9-oktabrdagi 02/23-2305-son ma‘lumotnomasi). Natijada parrandalarning postnatal ontogenezdagi turli fiziologik bosqichlarida kechadigan “qaltis” davrlarni hisobga olgan holda qo‘shimcha ravishda to‘yimliliigi yuqori bo‘lgan ratsionlarda oziqlantirish tavsiya etilgan hamda tovuqlarning tuxum qo‘yish darajasining oshishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta, shu jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 5 tasi respublika, 3 ta xorijiy ilmiy jurnallarda, 4 ta ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlarida nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta uslubiy tavsiyanoma chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya

tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiyotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, mazkur bobning **“Parrandalar reproduktiv organlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar”** deb nomlangan birinchi qismida parrandachilikning bugungi kundagi holati, tarmoqni rivojlantirish istiqbollari, parrandalar organizmining o'ziga xos morfo-fiziologik xususiyatlari, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga oid dunyo olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan. **“Parrandalarning reproduktiv tizimi organlarining morfologik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi qismida tuxum yo'nalishidagi tovuqlar tuxumdoni va tuxum yo'lining morfologik xususiyatlari, tuxum qo'yishga tayyorgarlik ko'rish, tuxum qo'yish jarayonining jadalligi bilan bog'liq ravishda ushbu organlarda kuzatiladigan morfofunktsional o'zgarishlar to'g'risida olimlarning tadqiqot natijalari keltirilgan.


**“Parrandalar reproduktiv organlarining ontogenezda rivojlanish xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi qismida parrandalarning embrional rivojlanish davrida reproduktiv organlarning shakllanishi, postnatal ontogenezning har xil fiziologik bosqichlarida tovuqlar tuxumdoni va tuxum yo'lining morfofiziologik o'zgarib borish qonuniyatlari to'g'risidagi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan. Adabiyotlar tahlilining yakuniy xulosasida tuxum yo'nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezining turli fiziologik bosqichlarida tuxumdon va tuxum yo'lining makroanatomik, mikroanatomik, gistologik ko'rsatkichlarining o'zgarib borish xususiyatlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotlar materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, ob'yekti va uslublari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqot ishlari 2022-2024-yillar davomida Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanidagi **“Oq saroy”** xususiy parrandachilik korxonasidan olib kelingan 15-, 35-, 85-, 120-, 168- 280-, 420- va 570 kunlik **“Dekalb”** krossiga mansub 40 bosh tuxum yo'nalishidagi jo'jalar va tovuqlarning reproduktiv organlari ustida o'tkazilgan. Tekshirishlar ob'yekti uchun tegishli yoshlarga oid tuxum yo'nalishidagi jo'jalar va tovuqlar tuxumdoni va tuxum yo'li (voronka, oqsilli, bo'yincha, bachadon va qin qismlari) olingan. Organlarga ishlov berishda va morfometrik ko'rsatkichlarini aniqlashda N.P.Chirvinskiy tomonidan qo'llanilgan hamda joriy qilingan umummorfologik uslublardan foydalanilgan. Tadqiqot ishlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining **“Hayvonlar anatomiyasi, gistologiya va patologik anatomiya”** kafedrasining **“Patomorfologiya”** va **“OPTA-TECH”** laboratoriyalarida bajarilgan.

Organlarning mikroanatomik tuzilishi reproduktiv organlar tarkibidagi tuxumdon va tuxum yo'li (voronka, oqsilli, bo'yincha, bachadon va qin qismlari) da o'rganildi.

Barcha yoshdagi parrandalarning tuxum yo‘li devorining qalinligi, uning shilliq qavati burmalarining balandligi va kengligi, shuningdek, epiteliy, muskul pardalarining qalinligi o‘lchamlarini olishda OPTIKA ITALY B-290 mikrometri okulyar yordamida amalga oshirildi. Tuxumdon va tuxum yo‘lining anatomik va gistologik preparatlarini suratga olishda MB-200 mikroskop kamerasidan foydalanildi. Tuxum yo‘li to‘qimalarining hujayra shakllari yig‘indisini sitometriya qilishda yadro diametrlarining katta va kichikligi, hujayralarning balandligi va enini o‘lchash orqali aniqlandi. Yadro va hujayralarning maydoni, shilliq qavat burmalarining maydoni va hajmining o‘lchamlari ScreenMeter 1.0. demo kompyuter dasturi orqali amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning “**Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida reproduktiv organlarning morfometrik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar reproduktiv organlarining makronataomik hamda mikroanatomik ko‘rsatkichlari postnatal ontogenezning turli fiziologik bosqichlarida o‘zgarish xususiyatlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.



**1-rasm. Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumdonining morfometrik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi (sm, g).**


Tadqiqotlar natijasida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxumdonining makroanatomik ko‘rsatkichlari postnatal ontogenezning 15 kunligidan 168 kunligiga qadar jadal ortib borishi va 570 kunlikkacha 168 kunlikdagiga nisbatan sezilarli kamayishi aniqlandi. Postnatal rivojlanishning 168-kunida tuxumdonning uzunligi  $0,51 \pm 0,01$  sm dan  $35,24 \pm 0,71$  sm gacha, diametri  $0,316 \pm 0,001$  sm dan  $13,12 \pm 0,25$  sm gacha, og‘irligi  $0,084 \pm 0,002$  g dan  $28,78 \pm 0,63$  g gacha ortishi, 570 kunlikda uning uzunligi –  $5,38 \pm 0,19$  sm gacha, diametri –  $5,5 \pm 0,17$  sm gacha kamaygani holda, og‘irligi deyarli o‘zgarmasligi ( $29,08 \pm 0,55$  g), mazkur ko‘rsatkichlarning o‘shish koeffitsiyenti 15 kunlikdan 570 kunlikkacha uzunligida – 10,55; diametrda – 23,73; og‘irligida – 346,19 martaga yetishi qayd etildi (1-rasm).

Demak, tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar tuxumdonining morfometrik koʻrsatkichlari ularning tuxum qoʻyishga tayyorgarlik koʻrish, jadal tuxum qoʻyish hamda tuxum qoʻyish jarayonining susayishi kabi fiziologik holatlarga mutanosib tarzda oʻzgarib borish dinamikasini namoyon qiladi. Tuxumdonning uzunligi, diametri va ogʻirligining mutloq koʻrsatkichlari tovuqlarning jinsiy va fiziologik voyaga yetgan davriga (120, 168 kunlik) qadar birmuncha jadal koʻtarilib borishi roʻy beradi. Tuxumdon chiziqli oʻlchamlarining oʻsib borish jarayoni postnatal ontogenezning 168 kunligidan keyingi bosqichlarida sekinlashishi asosiy oziqaviy moddalarning tuxumni shakllantirishga sarflanishi bilan bogʻliq, degan xulosani keltirib chiqaradi. Shuni alohida taʼkidlash joizki, morfometrik koʻrsatkichlarning oʻsish koeffitsiyenti tuxumdon ogʻirligining chiziqli oʻlchamlarinikiga nisbatan yuqori boʻlishi kuzatildi.

Tovuqlar tuxum yoʻli umumiy uzunligining mutloq koʻrsatkichi postnatal ontogenezning 15 kunligidan 120 kunligiga qadar birmuncha jadallik bilan koʻtarilib borishi va 15 kunlikda 35 kunlikkacha  $3,26 \pm 0,11$  sm dan  $5,2 \pm 0,13$  sm ( $K=1,59$ ) gacha, 85 kunlikda –  $8,88 \pm 0,23$  sm ( $K=2,71$ ) gacha, 120 kunlikda –  $65,69 \pm 1,31$  sm ( $K=7,39$ ) gacha ortishi qayd etildi. Tuxum yoʻlining mazkur oʻlchami 120 kunlikdan keyingi 420 kunlikkacha katta ogʻishlarsiz, deyarli bir maromda ortishi, yaʼni 168 kunlikda –  $72,82 \pm 1,46$  sm ga, 280 kunlikda –  $75,94 \pm 1,55$  sm ga, 420 kunlikda –  $79,02 \pm 2,4$  sm ga yetishi, 570 kunlikda esa  $69,94 \pm 1,66$  sm gacha kamayishi, umumiy ogʻirligining mutloq koʻrsatkichi 15 kunlikdan 35 kunlikka qadar  $0,047 \pm 0,002$  g dan  $0,085 \pm 0,003$  g ( $K=1,8$ ) gacha, 85 kunlikda –  $0,296 \pm 0,011$  g ( $K=3,48$ ) gacha ortishi, 120 kunlikda boshqa yoshdagilarga nisbatan eng yuqori koʻrsatkichni ( $53,04 \pm 1,33$  g,  $K=179,1$ ) namoyon qilishi, 168 kunlikdan 120 kunlikdagiga nisbatan sezilarli oʻzgarishlarsiz koʻtarilib borishi va 168 kunlikda –  $61,42 \pm 1,8$  g ( $K=1,15$ ) ga, 280 kunlikda –  $66,8 \pm 1,5$  g ( $K=1,08$ ) ga, 420 kunlikda –  $69,5 \pm 1,5$  g ( $K=1,04$ ) ga yetishi, 570 kunlikda uning chiziqli oʻlchamlari singari kamayishi ( $52,8 \pm 1,3$  g,  $K=0,75$ ) kuzatildi. Tovular postnatal ontogenezining 15 kunligidan 570 kunligiga qadar davr davomida tuxum yoʻli umumiy uzunligi mutloq koʻrsatkichining oʻsish koeffitsiyenti 21,41 martagacha ortishi aniqlandi (2-rasm).

Tuxum yoʻnalishidagi tovuqlar reproduktiv organlarining morfofunksional xususiyatlari bilan bogʻliq holda tuxum yoʻlining anatomik qismlari postnatal ontogenezning 120 kunlik bosqichidan toʻliq chegaralanishi kuzatildi va oʻziga xos morfometrik oʻzgarishni namoyon qilishi qayd etildi. 120 kunlikdan 168 kunligiga qadar tuxum yoʻli voronka qismining uzunligi –  $8,5 \pm 0,2$  sm dan  $9,14 \pm 0,33$  sm ga, eni –  $6,18 \pm 0,19$  sm dan  $7,2 \pm 0,16$  sm ga, qalinligi –  $0,462 \pm 0,018$  sm dan  $0,488 \pm 0,019$  sm ga, ogʻirligi –  $0,84 \pm 0,02$  g dan  $1,084 \pm 0,036$  g ga; oqsilli qismining uzunligi –  $27,3 \pm 0,51$  sm dan  $30,1 \pm 0,19$  sm ga, eni –  $1,78 \pm 0,05$  sm dan  $3,4 \pm 0,12$  sm ga, qalinligi –  $0,476 \pm 0,012$  sm dan  $0,74 \pm 0,027$  sm ga, ogʻirligi –  $30,62 \pm 0,41$  g dan  $34,02 \pm 0,67$  g ga; boʻyicha qismining uzunligi –  $10,84 \pm 0,22$  sm dan  $12,66 \pm 0,29$  sm ga, eni –  $1,34 \pm 0,02$  sm dan  $1,82 \pm 0,05$  sm ga, qalinligi –  $0,42 \pm 0,013$  sm dan  $0,522 \pm 0,015$  sm ga, ogʻirligi –  $5,3 \pm 0,16$  g dan  $6,56 \pm 0,17$  g ga; bachadon qismining uzunligi –  $11,4 \pm 0,32$  sm dan  $12,62 \pm 0,4$  sm ga, eni –  $3,02 \pm 0,1$  sm dan  $3,76 \pm 0,05$  sm ga, qalinligi –  $0,68 \pm 0,02$  sm dan  $0,84 \pm 0,02$  sm ga, ogʻirligi –  $12,7 \pm 0,28$  g dan  $15,9 \pm 0,54$  g ga; qin

qismining uzunligi –  $7,92 \pm 0,17$  sm dan  $8,32 \pm 0,25$  sm ga, eni –  $2,16 \pm 0,04$  sm dan  $2,68 \pm 0,02$  sm ga, qalinligi –  $0,58 \pm 0,022$  sm dan  $0,76 \pm 0,027$  sm ga, og‘irligi –  $5,26 \pm 0,12$  g dan  $6,66 \pm 0,17$  g ga yetishi aniqlandi.



2-rasm. Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxum yo‘lining morfometrik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasi (sm, g).

Demak, tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar tuxum yo‘lining anatomik qismlari postnatal ontogenezning 120 kunligi, ya‘ni jinsiy yetilgan bosqichidan to‘liq chegaralanishi kuzatiladi. Tuxum yo‘lining voronka, bo‘yicha, oqsilli, bachadon va qin qismlarining chiziqli o‘lchamlari va og‘irliklari tovuqlar postnatal rivojlanishining 120 kunligidan 168 kunligi, ya‘ni fiziologik voyaga yetgan davriga qadar jadal ortishi, 280, 420 kunliklarda deyarli o‘zgarimasdan, 570 kunlikda mazkur ko‘rsatkichlarning pasayishi qayd etildi. Bizning fikrimizcha, bu holat tovuqlarning tuxum qo‘yish jarayonlarining kechishi, ya‘ni tuxum qo‘yishga kirishi, jadal tuxum qo‘yish bosqichi hamda “biologik so‘nish” davrida ular organizmida ro‘y beradigan morfo-fiziologik o‘zgarishlar bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning “**Tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida reproduktiv organlarining gistologik xususiyatlari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida tuxum yo‘nalishidagi tovuqlar postnatal ontogenezida tuxumdon va tuxum yo‘li gistologik ko‘rsatkichlarining o‘zgarish dinamikasini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari yoritilgan.

**Tovuqlar tuxumdonining gistologik tuzilishi.** Tadqiqotlar natijasida 15 kunlik tovuqlarning tuxumdonlari bir qavatli kubsimon epiteliy bilan qoplangan bo‘lib, birlamchi follikulalar ko‘p emasligi, ular asosan tuxumdonning po‘stloq qavati burmalarining submezotelial biriktiruvchi to‘qimasida joylashganligi aniqlandi. Follikulyar epiteliy hujayralari bilan o‘ralmagan gonotsitlarning bittalik va guruhlilari kuzatildi. Bunday gonotsitlar katta emasligi, sitoplazmasi nisbatan aniqligi, yadrolari giperxromli, yadrochalar ularda ifodalanmasligi va yaxshi shakllangan primordial follikulada ootsit butun bo‘shliqni egallaganligi qayd etildi.

Tuxum yoʻnalishidagi 35 kunlik tovuqlar tuxumdonining yuzasi gʻadir budir boʻladi. Ootsitlar sitoplazmasi bir xil, kuchsiz bazofil. Yadrosi biroz chetga siljigan, unda xromatin tarqoq holatda boʻlib, yadroda yadrocha aniq koʻrinadi. Follikulyar epiteliy – bir qavatli silliq. Epiteliotsitlarning yadrolari giperxromli, yassi, sitoplazmasi kuchsiz bazofildir. Siyrak biriktiruvchi toʻqima follikula atrofida yotadi, uning asosiy hujayra elementlari – fibroblastlar hisoblanadi. Follikulaga yaqin joyda kollagen tolalarining zich toʻri kuzatiladi. Primordial follikulalar uchrab, ularning epiteliysida bir yoki ikki - uchta follikulyar hujayralar borligi va bunday follikulalar shakllanish holatida boʻlishi aniqlandi.

Tuxum yoʻnalishidagi 85 kunlik tovuqlar tuxumdoni yuzasining gʻadir budirligi oshadi. Dastlabki oʻsish jarayonlari bosqichidagi follikulalar tuxumdonning poʻstloq qatlami burmalarining biriktiruvchi toʻqima asosida va koʻpincha toʻgʻridan-toʻgʻri oq parda ostida joylashadi. Follikulaning boʻshligʻini ootsit egallaydi. Ootsit yadrosi nisbatan katta boʻlib, u markazda joylashganligi va atrofga siljiganligi va uning xromatini boʻlaklar koʻrinishida boʻlishi aniqlandi. Yadrolari atrofida yorqin yadro atrofi boʻshligʻi aniq koʻrinishi kuzatildi.

Tuxum yoʻnalishidagi 120 kunlik tovuqlar tuxumdonining yuzasi gʻadir-budir boʻlib, tuxumdonning magʻiz qavati yaxshi rivojlangan boʻlib, unda koʻp miqdorda qon tomirlar va nerv chigallari boʻladi. Ootsit sitoplazmasi nisbatan bir xil. Sitoplazmasida baʼzan kiritmalarning kichik granulari va asosan ootsitning periferiyasida koʻrinadi. Dastlabki oʻsish bosqichidagi ootsitlar sitoplazmasida kichik va katta tomchilar koʻrinishidagi lipid kiritmalari koʻp miqdorda aniqlandi. Follikulaning qalinligi butun devori boʻylab bir xil emasligi, follikulyar epiteliysi bir qavatli kubsimon ekanligi, epiteliotsitlari esa yirik boʻlishi, ularning yadrolari giperxromli, yumaloq, baʼzan biroz yassilangan, apikal tomonga siljiganligi, karioplazmaning yirik boʻlakli xromatini kariolemmaga yaqin joylashishi aniq koʻrinadi.

Follikula rivojlanishining ushbu bosqichida kollagen tolalari tutamining faqat nozik pardalari va alohida silliq muskul hujayralari aniqlandi. Follikula oyoqchasining asosini siyrak tolali biriktiruvchi toʻqima va turli yoʻnalishlarga yoʻnalgan silliq muskul hujayralari toʻplamlari, arterial va venoz qon tomirlari va bir qancha interstitsial hujayralardan iboratligi, follikulaning butun boʻshligʻini ootsit egallanligi, ootsit sitoplazmasi bir xil emasligi, tarkibida yirik vakuolalar mavjudligi, shuningdek, unda ootsitning periferiyasida joylashgan changsimon kiritmalar borligi aniqlandi.

Tuxum yoʻnalishidagi 168 kunlik tovuqlar tuxumdoni follikulalari devor qalinligining oʻzgarib turishi, follikulalarning yuqori va yon devorlarida perivitellin qobigʻi giperxromli chiziq va u bilan follikulyar epiteliy oʻrtasida yoritilgan zona koʻrinishidagi tor, tuzilmasiz perivitellin qobigʻi aniq koʻrinib turishi kuzatildi va ushbu holat ikki omilga bogʻliq boʻlishi mumkin: birinchidan, bu parda tarkibida follikulyar hujayralar suyuqligining borligi, ikkinchidan, bu joy epiteliotsitlar va ootsit plazmalemmasi oʻrtasidagi interdigitatsiyani ifodalaydi. Follikulyar epiteliy bir qavatli bir qatorli silindrsimon, baʼzan ikki qatorli boʻlishi, hujayralarning deyarli markazida joylashgan yumaloq yadrolarida xromatinning kichik boʻlakchalari

mavjudligi, epiteliotsitlar sitoplazmasi kuchsiz bazofil bo'lishi, nozik va changsimon donalar ko'rinishidagi kiritmalar sitoplazma bo'ylab teng tarqalganligi, bu yerda ular o'sishning birinchi bosqichidagi follikulalarga qaraganda ancha ko'pligi, bazal membrana eozinofilli va yaxshi ifodalanganligi qayd etildi.

Tovuqlar postnatal ontogenezing 280 kunligida tuxumdonning yetilish bosqichidagi follikulalari tuxumdondan sezilarli darajada tashqariga chiqishi va shuning uchun ularning to'liq shakllangan oyoqchasi mavjudligi, u tez o'sish bosqichidagi follikula oyoqchasi bilan bir xil tuzilishga ega bo'lishi kuzatildi. Ba'zida yetilgan follikulaning oyoqchasida ko'plab mayda follikulalar bo'lib, ikkitadan to'rttagacha arteriya va vena tomirlari hamda ikkita yirik nervlarni ko'rish mumkin. Follikulaning butun bo'shlig'ini ootsit egallaganligi, sitoplazmasi bir xilda emasligi, vakuolalar va eozinofil donachalarini o'z ichiga olishi, unda changsimon kiritmalar ko'rinishi aniqlandi (3-rasm).



**3-rasm. Tuxum yo'nalishidagi 280 kunlik tovuq tuxumdonining gistologik ko'rinishi. 1 – turli bosqichlarda rivojlanayotgan follikulalar. 2 – follikula pardasi. Gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan (× 400)**

Epiteliotsitlarning yadrolari yumaloq, bazal tomonga biroz siljigan bo'lib, ularda katta va o'rta kattalikdagi xromatin bo'laklari ajralib turishi, mayda donadorlik kariolemma yaqinida joylashganligi, epiteliyda sitoplazmasi kuchsiz bazofil bo'lgan yirik yulduzsimon shakldagi hujayralar uchrashi, epiteliotsitlar sitoplazmasida mayda changsimon donador kiritmalar tarqalganligi, ular tez o'sish bosqichidagi follikulalar epiteliotsitlari kabi ko'p miqdorda bo'lishi, bazal membrana yanada aniqroq ifodalanganligi qayd etildi.

Tuxum yo'nalishidagi 420 kunlik tovuqlarda ovulyatsiyadan keyin follikula devori keskin qisqarganligi, follikulaning bo'shlig'i oqsilli tuzilmasiz detrit bilan to'lganligi, ba'zan uning tarkibida follikulyar hujayralar, psevdoeozinofillar, bittalik eritrotsitlar, plazmotsitlar va gistiotsitlar tipidagi hujayralar saqlashi kuzatildi.

Tovuqlar postnatal ontogenezing 570 kunligida tuxumdonning atreziya o'sish va rivojlanishning turli bosqichlaridagi follikulalarda kuzatildi. Tadqiqotlarimiz davomida ootsitlar barcha o'sish bosqichlarida atreziyaga uchraganligini, burmalar paydo bo'lishini aniqladik. Yadroda yadrochalar yo'qolib,



xromatin yirik bo'laklarga aylangan, sitoplazmadagi vakuolalar soni kamaygan, o'sish bosqichida follikulalar ooplazmasida eozinofil tomchilari paydo bo'lganligi kuzatildi. Yetilayotgan follikulalar ooplazmasining periferik qismlarida kuchsiz bazofilli vakuolalar paydo bo'lganligi, follikulyar epiteliy ko'p qavatliga aylanganligi, epiteliotsitlar yumaloq shaklda, o'lchami yirik, ularning yadrolari kuchsiz bazofil bo'lishi, ular orasida yulduzsimon giperxrom yadroli hujayralar paydo bo'lishi, yetilayotgan follikulalarda bu hujayralar oksifil sitoplazmaga ega, hujayralararo bo'shliqlar kengayib, birinchi holatda kuchsiz bazofil tabiatli, ikkinchisida – oksifilli suyuqlik bilan to'lganligi qayd etildi.

O'sgan follikulyar epiteliy qismlarida qon tomirlari qon bilan to'lib, qo'shimcha qavatning hujayralararo moddasi keskin oksifillidir. Bizningcha, bu sohalarida vakuolalar va eozinofil granular tarkibining so'rilish jarayonlari faol davom etmoqda va yetilayotgan follikulaning oots it sitoplazmasi shu vaqtga qadar boyib boradi. Yakuniy o'sish bosqichidagi follikulalar pardasida interstitsial hujayralar va fibroblastlar ustunlik qilishi, atreziyaning oxirgi bosqichlarida follikula bo'shlig'i nafaqat follikulyar epiteliyning ko'payadigan hujayralari, balki o'sib boradigan stroma hujayralari bilan ham to'lib, follikulaning o'zi qiyin farqlanishi, yetilayotgan follikulaning tarkibi follikulyar hujayralar tomonidan so'rilib asta-sekin yo'qolishi, devorlarida burmalar paydo bo'lishi va qalinlashuvi, follikulaning pardasida hujayralarning asosiy qismi degeneratsiyaga uchraganligi kuzatildi.

Shunday qilib, tadqiqotlarimiz natijasida tuxumdonning burmali po'stloq qatlamida follikulyar hujayralar bilan o'ralmagan gonotsitlarning mavjudligi; ootsitlar va follikula devorlarining o'sish bosqichlarida, o'sish davrlariga o'tishi, ularning o'sish paytidagi o'zgarishlari, o'sishning yakunlanishi va ovulyatsiya bilan tugaydigan yakuniy yetilishi bosqichlari aniq ajralib turishi; rivojlanishning turli bosqichlarida follikulalar atreziyasining aniq namoyon bo'lishi; tuxumdonning qon tomir (mag'iz) qavatining keng va yaxshi ifodalanganligi; follikulaning barcha rivojlanish bosqichlarida follikulyar epiteliy bir qavatligining saqlanishi, ya'ni uning bir qavatli yassi epiteliy (birlamchi follikula) dan bir qavatli kubsimon va silindrsimon (o'sish bosqichida)ga, bir qavatli ko'p qatorli silindrsimon (follikulaning o'sishi va yetilishi davrida) epiteliylarga aylanishi kuzatildi.

Tuxumdon mikrotuzilmalarning mutloq o'lchamlari tovuqlar postnatal ontogenezining 15 kunligidan 168 kunligiga qadar jadal ortishi, ya'ni o'rtacha follikulalarning diametri  $40,28 \pm 3,52$  mkm dan  $247,07 \pm 5,28$  mkm gacha, follikula pardasining qalinligi  $7,42 \pm 1,13$  mkm dan  $74,22 \pm 3,33$  mkm gacha, tuxumdon interstitsial hujayralarining diametri  $8,47 \pm 0,28$  mkm dan  $11,44 \pm 0,11$  mkm gacha, po'stloq yoki follikulyar qavatining nisbiy o'lchami  $12,46 \pm 0,15\%$  dan  $81,35 \pm 2,96\%$  gacha ko'tarilishi aniqlandi. Postnatal ontogenezning 570 kunligida 168 kunlikdagiga nisbatan tuxumdon po'stloq qavatidagi yetilgan follikulalar diametri 136,81 mkm ga, follikula pardasining qalinligi 41,8 mkm ga, interstitsial hujayralarning diametri 2,16 mkm ga, po'stloq qavatining nisbiy o'lchami 12,01% ga kamayishi qayd etildi.

Shunday qilib, tovuqlar tuxumdoni follikulalarining yetilish jarayoni postnatal ontogenezning dastlabki 15 kunligidan 120 kunligiga qadar ularning jinsiy



